

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР:  
ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ  
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ

МАЙ  
2021

Тошкент, Ўзбекистон



МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

ХАЛҚАРО | ИЛМИЙ-АМАЛИЙ | МАСОФАВИЙ | КОНФЕРЕНЦИЯ  
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ



[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**«ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ  
ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА  
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ  
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ  
ОМИЛЛАРИ»**

---

**«ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В  
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:  
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ  
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ»**

---

**«DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN  
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND  
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND  
PEDAGOGY»**



Замонавий таълимда рақамли технологиялар: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари [Тошкент; 2021] 1 май 2021 йил. -Тошкент: Tadqiqot, 2021. - 162 б

Ушбу тўплам замонавий таълимда рақамли технологиялар: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омилларига бағишланган тезисларни қамраб олган.

УЎК 37.018.43:004(062)

DOI 10.26739/conf\_4/06/2021

Ушбу тўпламнинг электрон шакли куйидаги сайтларда

<https://tadqiqot.uz/conf/>

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

## Тахририят кенгаши

1. Абдуллаева Барно Сайфутдиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети проректори, п.ф.д., профессор
2. Шахобиддин Саидович Ашуров Самарқанд давлат чет тиллари институти проректори, ф.ф.н., доцент
3. Дасураев Рисбой Хайдарович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, п.ф.д.
4. Асқаров Ахмадали – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, т.ф.д.
5. Ли Ю Ми – (Жанубий Корея) Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети РНД
6. Лутфуллаев Махмуд Ҳасанович – Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, п.ф.д.
7. Мирсанов Гайбулло Қўлмуродович – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
8. Насруллаева Нафиса Зафаровна – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
9. Кисилев Дмитрий Анатольевич – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
10. Сувонова Нигорабону Низамиддиновна – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.н.
11. Гайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, ф.ф.д.
12. Муслимов Нарзулла Алиханович – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
13. Халиков Аъзам Абдусаломович – педагогика Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
14. Уразова Марина Батировна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
15. Мирсолиева Муҳаббат Тухтасиновна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.д.
16. Мамадалиев Абдумажид – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
17. Садиқова Альбина Венеровна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
18. Авазов Шериммат – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
19. Мамаражабова Зулфия Нарбаевна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
20. Адилова Саодат Хусановна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
21. Расулов Анвар Баходирович – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи, РНД
22. Абдуазимов Азиз Абдусобирович – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи.
23. Рахимова Гулсанам Аширбековна – Ўзбекистон Миллий Университети Хорижий Филология факультети Таълим йуналишлар бўйича чет тиллар кафедраси мудири

*Тўпламга киритилган тезислардаги таълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир*

©Муаллифлар жамоаси

©Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиёв

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Tel: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr. 1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>Ҳабибжонов Икромжон Тошпўлат ўғли</b> СОЛИК-БОЖХОНА ТЕРМИНЛАРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ – МУҲИМ ЛИНГВИСТИК МУАММО СИФАТИДА .....	7
<b>Azimov Asliddin Karimovich</b> O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING USTUNLIGI .....	9
<b>Hayitova Nilola G'afurovna, Ibodova Sevvara To'xtasinovna</b> O'RTA MAKTAB MATEMATIKA KURSIDA TUB VA MURAKKAB SONLARNI O'QITISHDA TAQQOSLASH METODIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	11
<b>Абосандов Олим Шухратович</b> ПРАВОВОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ПОСРЕДНИКОВ В СПОРТЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	13
<b>Худайкулова Наргиз Абдуллаевна, Махшиё Азимова</b> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЖАСОРАТИ.....	15
<b>Хайитова Хилола Гафуровна, Ибодова Севарабону Тухтасиновна</b> ОБ ИЗУЧЕНИИ СОБСТВЕННЫХ ЗНАЧЕНИЙ МОДЕЛИ ФРИДРИХСА С МАТЕМАТИЧЕСКИМИ ПАКЕТАМИ.....	17
<b>Бектурдиев Гайрат Рузибаевич, Полванова Меҳрибон Юсуповна</b> ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ.....	19
<b>Samekееva Gulbakhar</b> PROBLEMS OF TEACHING SPOKEN ENGLISH .....	21
<b>Алиқулов Самар Саттор ўғли</b> ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА КЕЙС-ТЕХНОЛОГИЯСИДАН Фойдаланиш.....	23
<b>Asadov To'liqin Hamroyevich</b> SIFAT YASALISHIDA MUALLIF NUTQI NEOLOGIZMLARI.....	26
<b>Choriyeva Zamira Tirkashevna</b> MUOMMOLI TA'LIM USULIDAN ADABIYOT DARSLARIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	29
<b>Эриязарова Назира Ҳақбердиевна, Пардаева Замира Уктамовна</b> ОЛИИ МАТЕМАТИКА ФАНИДАН ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ.....	31
<b>Hamdamova Manzura</b> ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH .....	33
<b>Djumanova Barno Oglonbek kizi</b> INTENSIVE METHODS FOR EDUCATING FOREIGN LANGUAGES .....	35
<b>Mahmudova Dilfuza Ongarovna</b> O'ZBEK TILINI O'QITISHDA LOYIHA TA'LIMI METODIDAN FOYDALANISH .....	37
<b>Joldasbaev Bazarbay Maksetovich</b> MODERNIZM ADEBIY AGIMININ PAYDA BOLIVI, MILLIY ADEBIYATIMIZGA TASIRI.....	39
<b>Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna, Sodiqova Xolidaxon Muzaffar qizi</b> REKLAMA MAGNINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	41
<b>Vaydullayeva Shaxzoda Anvarovna</b> BOSHLAG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH.....	44
<b>Xaitov Fayzulla Norbutayevich, Sodiqova Fotima Hamid qizi</b> "SMM LOYIHALARI BILAN TANISHISH" MAVZUSINI ELEKTRON ISHLANMA YORDAMIDA O'QITISH.....	46
<b>Ozoda Kalandarovna Hakimboyeva</b> LINGUISTIC GENDER PROBLEMS IN STUDYING LANGUAGES.....	49
<b>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</b> TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI BOSHQARISHNING O'ZIGA HOSLIGI.....	51
<b>Йўлдошева Азиза Зокир қизи</b> ЧИНГИЗ АХМАРОВ ИЖОДИНИНГ БЕТАКРОР КИРРАЛАРИ.....	53
<b>Boltayeva Sitora Mirdjonovna</b> TALABALAR BILIMINI BAXOLASHNING REYTING TIZIMI YAKUNIY DAVLAT	



## SIFAT YASALISHIDA MUALLIF NUTQI NEOLOGIZMLARI

**Asadov To'liqin Hamroyevich,**

Buxoro davlat universiteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.n.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sifat so'z turkumida kuzatiladigan so'z yasalishi yoritilgan, o'zbek tilshunosligida sifat so'zlarning yasalishi bilan bog'liq nazariy fikrlarga munosabat bildirilgan, nutqiy yasama sifatlar qatnashgan badiiy adabiyot namunalari tahlil va tasnif etilgan. O'zbek tilida sifat yasovchi affiksning so'z yasashdagi imkoniyatiga ko'ra tasnifi keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** yasama sifat, lug'aviy va nutqiy yasalish, unumli va unumsiz so'z yasalishi, affiksatsiya va kompozitsiya, muallif nutq neologizmlari.

## НЕОЛОГИЗМЫ АВТОРСКОЙ РЕЧИ В ПОСТРОЕНИИ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ

**Асадов Тулкин Хамраевич,** Бухарский государственный

университет, Доцент кафедры узбекского

языкознания

**Аннотация.** В статье описывается словообразование, наблюдаемое в категории прилагательных, теоретические взгляды на формирование прилагательных в узбекской лингвистике, анализ и классификация примеров художественной литературы с использованием речевых прилагательных. В узбекском языке существует классификация аффиксов, образующих прилагательные, по их способности образовывать слова.

**Ключевые слова:** законодательные прилагательное, лексико-речевое построение, продуктивное и неэффективное словообразование, аффиксирование и композиция, авторские речевые неологизмы.

## NEOLOGISMS OF THE AUTHOR'S SPEECH IN THE CONSTRUCTION OF ADJECTIVE

**Asadov Tulkin Hamroyevich,**

Associate professor of the department of

Uzbek linguistics, Bukhara state university

**Annotation.** The article describes the word formation observed in the category of adjectives, comments on theoretical views on the formation of adjectives in Uzbek linguistics, analyzes and classifies examples of fiction using spoken derivative adjectives. Adjectives that make up affixes are classified according to their ability to form words in the Uzbek language.

**Keywords:** derivative adjective, lexical and speech construction, productive and inefficient word formation, affixation and composition, author's speech neologisms.

O'zbek tili grammatikasiga oid manbalarda 50 ga yaqin sifat yasovchi affiks belgilanib, ularning katta qismi faol (Jumladan: -li, -lik, -siz, -gi/ki/qi, -k (-uk/ik/ak), -q (-uq/iq/aq), -dor, -kor (-gar), -iy/viy, -ma, -day/dek), yana bir qismi (-qin/g'in/gin, -kir/gir/qir/g'ir, -cha, -chan va b.) passiv yasovchi affiks ekanligi aytiladi[2,272-288].

A.Hojiyev faol sifat yasovchilar, ya'ni hozirgi o'zbek tili lug'at qatlamining taraqqiyotiga xizmat qilayotgan mahsulli affiks sifatida -kor, -dor, -ser, -siz, no-, kam-, g'ayri-, -lik, -iy/viy, -ma, -simon, -baxt, ham-, xush- kabilar, so'z yasash vazifasini to'xtatgan – unumsiz qo'shimchalar tarkibini -oq (*qo'rqoq, qoloq*), -aki (*og'zaki, sharttiki*) -chang (*ko'ylakchang, yaktakchang*) -chil (*dardchil, xalqchil*) -gi/ki/qi (*kunduzgi, kechki, sirtqi*) kabilar bilan belgilaydi[4,111]. Olim ta'kidlaganidek, -gi/ki/qi affiksi bilan shu vaqtga qadar o'nlab so'zlar yasalgan. Lug'atlarda bu qo'shimcha bilan yasalgan 70 ga yaqin so'z keltiriladi[3,54-56]. Ahamiyatlisi shundaki, ma'lum bir vaqt davomida – shu kunga qadar, mahsulli bo'lgan mazkur affiks hozirgi kunda yangi (garchi nutqiy – okkazonal bo'lsa-da) so'z yasashda ishtirok etmayapti. Demakki, [o'rin/payt oti + gi/ki/qi] qolipi o'z unumdorligini allaqachon yo'qotgan. -gi affiksi va uning variant shakllari yangi



soʻz yasashi uchun avvalo, oʻzbek tilida *kech, sirt, bugun, erta...* qabilidagi soʻzlar paydo boʻlishi lozim. Shundagina mazkur affiksning faoliyati davom etishi mumkin.

Xullas, -gi/ki/qi affikslarining faoliyati uchun material (xomashyo) mavjud emas, shu sababdan mazkur affiksli soʻzlar faqatgina tarixan (diaxron) asos va qoʻshimchalarga boʻlinadi. Vaholanki, qolip hosilalarining miqdori, bu hosilalarning aniq maʼnolari lugʻat orqali belgilansa, bunday soʻz yasash qoliplari unumsiz sanaladi [1,43]. Qolaversa, lugʻatlar nutqiy yasalmalar (yangi-yangi yasama soʻzlar) ni emas, leksemalarni qamrab oladi.

-chang affiksining soʻz yasashdagi imkoniyati -gi/ki/qi affikslari bilan bir safda qoʻyish, bizningcha, toʻgʻri emas. -chang affiksi unumli soʻz yasashda xizmat qila olmaydi, shuningdek, oʻta unumsiz ham emas. -chang affiksi uchun -gi/ki/qi affiksida mavjud boʻlmagan imkoniyat – yasashga asos boʻluvchi qism (material) lugʻat qatlamimizda baʼzi-baʼzida paydo boʻlib turibdi. Natijada *mahsichang, koʻvlakchang, maykachang* yasama soʻzlari qatori onda-sonda *kurtkachang, surtukchang, tulfichang, jaketchang* kabi nutqiy yasalmalar ham paydo boʻlib boryapti. Bu kabi nutqiy birliklar okkazonal boʻlishi mumkindir, har holda -chang affiksi lugʻatimiz taraqqiyoti oʻlaroq (turlicha kiyim-bosh nomlari paydo boʻla borgan sari) yangi-yangi soʻzlar yasash imkoniyatiga ega.

-kor soʻz yasovchi affiksi bir qancha soʻz yasaganligi, shunda ham asos fors-tojikcha soʻz boʻla olganligi, -kor affiksi yordamida sof oʻzbekcha va rus tilidan oʻzlashgan soʻzlar orqali soʻz yasalishi uchramasligi – shularni inobatga olib, hozirgi oʻzbek tilida bu affiksni sermahsul sifat yasovchilar qatoriga kiritib boʻlmashgi aytiladi [4,116]. Shu kabi fikrni qisman -dor, no-, be-, ba/bo-, kam-, -iy/viy affikslariga nisbatan ham aytish mumkin. Kuzatishlar koʻrsatadiki, -kor affiksi bugungi kunda ayrim shaxs otlarini (*qalampirkor, soyakor, kunjutkor, yongʻoqkor, ananaskor* va b.) yasashga xizmat qilyapti. Bu affiks yordamida 50 ga yaqin sifat yasalgani aytiladi. Mazkur fikrni oʻzbek tilida yaratilgan lugʻatlar ham tasdiqlaydi [3].

Ot soʻz turkumi yasalishi bandida aytib oʻtganimizdek -kor affiksli soʻzlar dastlab fors-tojik tilidan kirib kelgan. Keyinchalik [ot + kor] qolipi hosilasi sifatida oʻzbek tilida yangi-yangi soʻzlar (*moʻjizakor, havaskor, omilkor*) yaralgan. -kor affiksi, asosan, shaxsga oid belgini bildiruvchi soʻzlar yasashi aytiladi. Biroq mazkur affiksga nisbatan „predmet belgisiga xos maʼno ifodalovchi“ tarzida, yaʼni umumiyroq tavsif berish lozim. -kor affiksi unumli sifat yasovchi affiks boʻlmasa-da, oʻrni-oʻrnida yangi sifatlar yasashga xizmat qilyapti, yaʼni [ot+kor=sifat] qolipi faoliyati davom etyapti. Misollarni kuzatamiz:

Tillaring biyronidir, tillaring – *savolkor*,  
Javob topolmasman – dillarim xira.  
Mening qalbimda ham izhor, sevgi bor,  
Agar ishonmasang, ilondan soʻra. ( U. Azim )  
*Nolakor* yangraydi nogoh soʻzlaring  
Sarob sevgilarda kuymish yozlaring. ( S. Sayid )  
Dashtaro porlagan koʻshkmi, saroymi,  
Qoshida *taʼzimkor* bobo Navoiy. ( T. Axmad )

Sifat yasovchi ser- affiksi yangi soʻz yasashda no-, be-, ba-, bo-, kam-, xush- old affikslaridan farqli tarzda individual nutq koʻrinishi sifatida baʼzi-baʼzida yangi-yangi soʻz yasash uchun xizmat qilmoqda: 1.U ertalab kiyim-kechaklari, ukalariga olgan sovgʻa-salomlarini yigʻishtirdi, ularni *serchoʻntak, serzanjir* charm xalatchasiga bitta-bitta joyladi. (O.Yoqubov) 2. Aks holda u har bir savolga bunchalik keng, har tomonlama... *serqamrov* javob bermas edi. („Milliy tiklanish“ gazetasi)<sup>1</sup>

Xuddi shuningdek, -ma, -simon affikslari ham sifat yasashda ishtirok etyapti. -ma ham ot, ham sifat yasay olishi aytiladi. -ma affiksi orqali XX asrda koʻplab birikma terminlar, fan terminlari yuzaga kelgan: *tirkama kombayn, osma koʻprik, tilma egat, ikkilanma integral* kabi.

-ma affiksli aksariyat otlarga „koʻchish“ (konversiya) mahsuli sifatida qarash toʻgʻriroq boʻladi. Masalan, *dimlama, choʻzma, qovurma* kabi otlar aslida belgi ifodasi uchun qoʻllanilib, *dimlama ovqat, choʻzma lagʻmon, qovurma shoʻrva* tarzidagi denotativ maʼnoda boʻlgan. Kuzatiladiki, nutqiy iqtisod natijasi evaziga sifatlanmish (*ovqat, lagʻmon, shoʻrva* kabi soʻz)lar tushib qolib, uning maʼnosini sifatlovchi oʻzida mujassamlashtirgan.

-simon affiksi orqali belgi ifodalovchi soʻzlarning paydo boʻlishi birmuncha faol. -simon affiksi

1 Misollar A.Hojiyevning “Ozbek tili soʻz yasalishi tizimi” kitobidan olindi: 122-b.



ko'plab nutqiy yasama so'zlarni vujudga keltira oladi: *qutisimon, arrasimon, qovurg'asimon, halqasimon, g'altaksimon, ombursimon, trubasimon, sharsimon, butasimon, egarsimon* va h.k. Mazkur affiks ayrim fan terminlarini yuzaga keltirishda ham faol affiks sanaladi [4,145]. -simon affiksli badiiy parchalarda ham qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz: *Unutildi o'tgan ishqisimon/ Daraxtlarning yupun barglari.* ( Z.Mirzo)

Sifat yasashda o'ta faol bo'lgan -li affiksi egalik belgisini, -siz affiksi ega emaslik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi. 50 ga yaqin sifat yasovchi affikslar tarkibidan -li, -siz kabilarni faol sifat yasovchi affikslar sifatida belgilash mumkin. Bu affikslar qo'llangan [ot+li], [ot+siz] qoliplarining hosilalari sifatida yuzlab hatto minglab so'zlar yuzaga kela oladi. Mazkur qoliplar hosilalarini – yasama so'zlarni hech qaysi lug'at to'liq qamrab olmaydi.

-siz affiksi bilan sinonim bo'lgan be- old sifat yasovchi shakl ham yangi nutqiy sifatlar yasashga ishtirok etyapti. Qiyoslang: kompyutersiz–bekompyuter (auditoriya), telefonsiz – betelefon (o'quvchi), texnikasiz – betexnika (fermer). Mazkur affiks yordamida yasalgan so'zlar badiiy ijod namunalarida ham kuzatiladi: *Tonglar otar, biz-la ishi yo'q/ Umr o'lar, vaqtning xushi yo'q/ Bahorning vozi, qishi yo'q.* (F.Afro'z)

Yangi sifatlar yasalishi so'z yasashning kompozitsiya usuli orqali ham amalga oshmoqda. Jumladan, buni U Azim she'riyatidagi quyidagi misollarda ko'ramiz :

1. Bu sog'inch yong'indan

Omonligi yo'q –

Har onda har lahzam

*Yulduzbarno* chog'.

2. Esingdami, dedi, ayol, *shishadevor* qahvaxona

Devorlarni yuvib turgan bahorgi yomg'ir

Yomg'irdan ham chiroyli oqqan musiqa.

Misollarda qo'llangan *yulduzbarno, shishadevor* qo'shma sifatlari yangilik bo'yig'iga ega bo'lib, individual nutq neologizmi sanaladi.

Xullas, sifat so'z turkumi guruhi affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasalgan so'zlar evaziga kengayib boryapti. Bunda ko'pincha muallif neologizmlari (individual nutq neologizmlari) yetakchilik qiladi. Sifat yasovchi affikslarni unumli-unumsizligiga ko'ra uchga bo'lib tasnif etish mumkin:

a) o'ta unumli sifat yasovchi affikslar: -li, -siz;

b) o'rta unumli sifat yasovchi affikslar: be-, -ma, -simon, -kor;

v) o'ta unumsiz sifat yasovchi affikslar: -gi/ki/qi, -k(-uk/ik/ak), -q(-uq/iq/aq), -dor, -iy/viy, -qin/ g'in/gin, -kir/gir/qir/g'ir va h.k.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.:“Ўқитувчи”, 1995.

2. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Ғ.Абдурахмонов таҳрири остида. –Т.:“Фан”, 1975.

3. Қўнғуров У., Тихонов А. Ўзбек тилининг терс луғати. –С., 1968.

4. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясашиши тизими. –Т.:“Ўқитувчи”, 2007.

**TADQIQOT.UZ**  
**ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**«ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ  
ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА  
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ  
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ  
ОМИЛЛАРИ»**

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаххих: Файзиев Фаррух Фармонович  
Саҳифаловчи: Файзиев Шахрам Фармонович

Эълон қилиш муддати 1.05.2021

**Контакт редакций журналлов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr. 1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000